

# XORIJIY TIL O'QITUVCHISI IJTIMOY PSIXOLOGIK BILIMDONLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK MULOQOTNING AHAMIYATI

**Sayfullaev Xurshid Jamolxonovich**

**JDPI**

***Abstract:** This article describes the importance of creative communication in improving the social psychological knowledge of a foreign language teacher. Professional-pedagogical communication is a complex phenomenon. The article emphasizes pedagogical communication as an integral quality of pedagogical influence. It is a professional dialogue between teacher and student in the educational process, in which information is exchanged and the educational impact is exerted on the student.*

***Key words:** social psychology, professional-pedagogical communication, creative communication, educational process, multifaceted activity, ability, creativity, dedication.*

Bugun davlatimizning kelajagi ma'naviy jihatdan yetuk, axloqan pok qilib tarbiyalangan yoshlar qo'lida bo'ladi. Albatta, shunday yoshlarni tarbiyalash biz o'qituvchi va ustozlardan ham katta shijoat va mas'uliyat, ham ulkan bilim, keng dunyoqarash va katta kuch talab etadi.

Darhaqiqat, bizning jamiyatimizda o'qituvchilik kasbi ulug'lanib, sharaflanadi. O'qituvchi, ustoz, muallim oldiga eng muhim vazifa-jamiyat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ilm berish vazifasi qo'yilgan. Jamiyatda sog'lom fikrlovchi, har tomonlama yetuk shaxslarni voyaga yetkazishda o'qituvchi-ustozlardan kasbiy mahorat, ko'p qirrali faoliyat va qobiliyat, ijodkorlik va fidoiylik talab etiladi.

Xorijiy til o'qituvchisi ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirishda ijodiy muloqotning ahamiyati beqiyosdir.

**Pedagogik muloqot**-pedagogik ta'sirning ajralmas sifatidir. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi kasbiy muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchiga o'quv-tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishi lozim. Uning asosi sifatida o'zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o'quvchi bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat

kutadi. O'quvchi ham o'qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadilar. Bu pedagogik ta'sirning samarali yo'li bo'lib, tajribali pedagoglar bolani o'z-o'zini hurmatlashga asoslangan holda munosabatlarni tashkil etadilar va shu orqali o'zaro munosabatlarni amalga oshiradilar. Muloqotning uziga xos darajalari mavjud. Bular: makro-(katta)-darajadagi insonlar bilan muloqot qilish, ya'ni barcha odob-axloq normalariga tayangan holda amalga oshiriladi. Mezo-(o'rta) darajadagi muloqot, ma'lum mavzu asosida kechadi (masalan, askiyada ma'lum mavzudan chekinmaslik). Mikro-(kichik) darajadagi muloqotning oddiy shakllari, savol-javob tariqasida yuz beradi. Bunda muloqotning turlari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: shaxslararo ("inson-inson"), shaxsiy-guruhiy ("guruh-guruh"), ommaviy kommunikasiya (radio, televideniye, gazeta va jurnallar) va boshqalar.

Pedagogik muloqotda ijodiylik quyidagilarga bog'liq:

- o'quvchi bilan o'zaro birgalikda harakat qilish;
- bolaga ta'sir qilishda uning xulq-atvorini boshqarish, o'zaro harakatning turli yo'llarini qo'llash;
- o'qituvchining o'z-o'zini boshqara olishi;
- o'zaro munosabatlar jarayonidagi ijodiylik xarakterini saqlay bilish.

Demak, o'qituvchi o'quvchi bilan ziddiyatlarga borsa, qandaydir muammo tug'ilsa, ushbu muammoni darhol hal qilishi lozim. Pedagogik muloqotdagi ijodiylik ham shunda bilinadi. Pedagogik muloqotda o'qituvchi bolani ko'ziga qarab, uning xayolidan nima kechayotganligini bilib olishi kerak.

Ijodiylik o'zaro munosabatlardan boshlanadi. Har bir pedagog o'z tajribasidan, uslubidan kelib chiqib, bolalar bilan muloqotda bo'lishi lozim. Ya'ni, nostandart usullarni izlab topishi kerak. Pedagogik ta'sir ham tarbiyaviy muloqotdagi ijodiylik orqali amalga oshiriladi.

**Ijodiylikni amalga oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:**

- bir necha o'qituvchilarning darslarini kuzatish, unda o'quvchining kayfiyatini, o'qituvchining bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarini aniqlash;
- o'qituvchining darsda qanday usullarni qo'llashi, muloqotni qanday tashkillashtirish, o'quv-tarbiyaviy muammolarning yechimini topishini aniqlash;

- o'zining muloqot texnologiyasini boshqa o'qituvchining "texnologiyasi"ga taqqoslashi;
- tajribali o'qituvchilarning tarbiyaviy soatlarida qatnashish orqali muloqot jarayonidagi o'quvchining individual xususiyatlarini aniqlash;
- o'zining darsidagi muhiti bilan boshqa tajribali o'qituvchining darsidagi muxitni taqqoslash orqali xulosa chikara olish va boshqalar.

Kasbiy-pedagogik muloqot-murakkab xodisa. Shaxs kasbiy- pedagogik muloqot qilishdan avval o'z oldiga bir necha vazifalarni ko'yadi. Jumladan, maqsad qo'yadi, muloqot qachon, qayerda, necha yoshlilar bilan o'tkazilishini rejalashtiradi. Pedagogik muloqotning eng muhim bosqichi-bu modellashtirish hisoblanadi. Bu bosqichdan muhim, mas'uliyatli muammoni hal qilishda foydalaniladi. Masalan, darsga tayyorlanish, ma'ruzani rejalashtirish ham shu bosqichni o'z ichiga qamrab oladi. Birinchidan, dasturga mos ravishda dars loyihasi tuziladi. Ikkinchidan, o'quvchining individual xususiyatlari hisobga olinadi. Uchinchidan, dars jarayonida qo'llaniladigan ta'lim-tarbiya usullari tanlanadi. To'rtinchidan, tahsil oluvchining aqliy rivojlanish qobiliyati hisobga olinadi.

Ikkinchi bosqich-bu bevosita muloqot bosqichi. Bu bosqichda o'qituvchi to'liq tashabbusni o'z qo'liga olib, dars boshlaydi.

Uchinchi bosqich-bu muloqotni boshqarish bosqichi bo'lib, kasbiy kommunikasiyaning muhim tarkibiy qismidir.

Kasbiy-pedagogik muloqotning vazifasi-texnologiyani o'zlashtirish bo'lib, unda o'qituvchi ilk munosabatlarni qo'llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo'ladi.

#### **Darsda tashabbusni qo'lga olish usullari quyidagilardan iborat:**

- sinf, guruh bilan aloqani yo'lga qo'yishda zudlik bilan harakat qilish;
- tezlik bilan tashkiliy ishlardan dars jarayonining muhim bosqichiga o'ta olish;
- sinfni ijtimoiy-psixologik yakdilligini, "biz" hissini shakllantirish;
- vaziyatga qarab bolalar bilan quloqot usullarini qo'llash;
- sinf, guruh jamoasi bilan yaxlit aloqani tashkillashtirish;

- nazokatlilik, samimiylik, dilkashlik, sofdillikni o'zida shakllantira olish, darsda namoyon qila bilish;
- taqiqlangan pedagogik talablarni kamaytirish, vaziyatga qarab ish tutish;
- mimika (yuz ifodasi), pantomimika (harakatlar), ko'z bilan ta'sir qilish (noverbal muloqot)ni faol qo'llash;

Kasbiy-pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida o'qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o'rin egallaydi. O'quvchi o'qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak.

Muloqotchanlik shaxs fazilati sifatida pedagogik muloqotning mahsuldor bo'lishini ta'minlaydi. Muloqotchanlik hissiy tabiatga ega bo'lib, ular kommunikativ va altruistik hislardir. Kommunikativ hislarga fikr almashish, hayajonlanish, simpatiya (yoqtirish) his qilish, muloqotda bo'layotgan hamrohni hurmat qilish kabilar kiradi. Altruistik hislar esa kishilarga quvonch keltirishni xohlash, boshqalar quvonchidan xursand bo'lish, hamdardlik bildirish va shu kabilardan iborat.

Shunday qilib, xorijiy til o'qituvchisi ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirishda kommunikativ, didaktik, hissiy-irodaviy ta'sir eta olish, perseptiv-pedagogik kuzatuvchanlik asosida o'quvchi ruhiyatiga ta'sir qilish, ekspressiv-nutqiy, mimika, pantomimika asosida fikrni tushuntirish, pedagogik fakt, talabchanlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Azizxodjaeva N. Yangi pedagogik texnologiyalar va o'qituvchi mahorati.- Toshkent: Meros, 2009.-34-bet.
2. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot.-T: Universitet, 2000.-268 bet.
3. Nasriddin Tusiyning pedagogik qarashlari.//Pedagogika antologiyasi. K.Hoshimov tahriri to'rtinchi nashr-Toshkent: O'qituvchi,2006-163-bet.
4. Uzokova, S. (2020). Colour, creativity and passion in English classroom. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-5.

5. Uzokova, S. (2020). Principles of Discourse Analysis in Linguistics. Журнал иностранных языков и лингвистики, 1(2), 7-12.

6. Uzokova, S. (2020). ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ВИДОВ ЧТЕНИЯ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ ВУЗАХ. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-7.

7.Uzokova, S. (2020). Инглиз тилидаги харакат модификаторларининг лингвокультурологик жиҳатлари. Журнал иностранных языков и лингвистики, 1(2), 2-7.

8.Uzokova, S. (2020). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАКТИЧЕСКОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ. Архив Научных Публикаций JSPI.

9.Uzokova, S. (2020). Экологик тарбиянинг ҳуқуқий асослари. Архив Научных Публикаций JSPI.

10.Uzokova, S. (2020). Америка ёзувчиси Стивен Кингнинг "Ўлик минтақа" асарининг ўзбек тилига бевосита ва билвосита таржималари таҳлили. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-5.

11.Uzokova, S. (2020). Маънавиятимизга таҳдид-мустақиллигимизга таҳдиддир. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-5.

12.Uzokova, S. (2020). Талаффуз малакаларини шакллантириш ва мустаҳкамлаш. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-7.

13.Uzokova, S. (2020). THEORETICAL AND COMPARATIVE STUDY OF VERBS OF MOTION IN TEXT. Архив Научных Публикаций JSPI.

